O‘ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: XALQARO TAJRIBA, AMALIYOT VA ISTIQBOLLAR

[1]Sultonov M.B., [2]Mamadjonov Oltinbek Baxodir o‘g‘li
[1]PhD, prof. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, [2]Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20273191

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston soliq tizimini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning iqtisodiy samaradorligi xalqaro tajribalar (Estoniya, Singapur, AQSh, Xitoy) bilan taqqoslagan holda tahlil qilinib, O‘zbekistonda soliq tizimining hozirgi muammolari va raqamli texnologiyalar yordamida ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Maqolada raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy samaralari, xususan, soliq to‘lovchilarga qulaylik yaratish va davlat byudjeti tushumlarini oshirishdagi o‘rni tahlil qilindi. Yakunda O‘zbekistonda raqamli soliq tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha xulosa va amaliy takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *soliq tizimi, raqamlashtirish, blokcheyn, sun’iy intellekt, elektron hisob-fakturalar, E-ijara, onlayn kassa apparatlari, Big Data, iqtisodiy samaradorlik, xalqaro tajriba, O‘zbekiston soliq siyosati.*

Аннотация. *В данной статье анализируются реализуемые реформы по цифровизации налоговой системы Узбекистана и их экономическая эффективность, сравниваются с международным опытом (Эстония, Сингапур, США, Китай), рассматриваются текущие проблемы налоговой системы Узбекистана и пути их решения с использованием цифровых технологий. В статье анализируются экономические эффекты процесса цифровизации, в частности, её роль в создании удобств для налогоплательщиков и увеличении доходов государственного бюджета. В заключение сформулированы выводы и практические предложения по дальнейшему развитию цифровой налоговой системы в Узбекистане.*

Ключевые слова: *налоговая система, цифровизация, блокчейн, искусственный интеллект, электронные счета-фактуры, E-rent, онлайн-кассы, Big Data, экономическая эффективность, международный опыт, налоговая политика Узбекистана.*

Abstract/ *This article analyzes the ongoing reforms to digitalize the tax system of Uzbekistan and their economic efficiency, compares them with international experience (Estonia, Singapore, USA, China), and examines current problems of the tax system of Uzbekistan and ways to solve them using digital technologies. The article analyzes the economic effects of digitalization, in particular, its role in creating convenience for taxpayers and increasing state budget revenues. The paper concludes with findings and practical proposals for the further development of the digital tax system in Uzbekistan.*

Keywords: *tax system, digitalization, blockchain, artificial intelligence, electronic invoices, E-rent, online cash registers, Big Data, economic efficiency, international experience, tax policy of Uzbekistan.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar jahon iqtisodiyotining deyarli barcha sohalariga kirib kelib, ish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvi va fiskal siyosatni raqamlashtirish bugungi kunda global tendensiyaga aylangan. Raqamli transformatsiya soliq tizimini soddalashtirish,

soliqqa tortish jarayonida shaffoflikni ta’minlash va korrupsiya xavfini kamaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilish va raqamlashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayon soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, soliq tushumlarini oshirish va iqtisodiyotning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi[1] doirasida soliq tizimini raqamlashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi tomonidan joriy etilayotgan elektron hisob-fakturalar, E-ijara xizmati, onlayn kassa apparatlari kabi amaliy choralar tadbirkorlarga qulaylik yaratish bilan birga, soya iqtisodiyoti ulushini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy maqsadi foyda olishdan iborat bo‘lib, davlat ushbu maqsadni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Davlat ko‘p funksiyali tizim sifatida o‘z vazifalarini bajarish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan mablag‘larning bir qismini safarbar etadi. Bu mablag‘lar soliqlar va yig‘imlar shaklida undiriladi hamda byudjet va byudjetdan tashqari fondlarni to‘ldirishga yo‘naltiriladi.

Soliqqa tortish jarayoni doimiy tartibga solish obyekti bo‘lib, u yangi soliq majburiyatlarini joriy etish, mavjudlarini bekor qilish, imtiyozlarni kiritish yoki ularni qayta ko‘rib chiqish kabi chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarining kengaytirilishi, odatda, xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbariyati tomonidan ijobiy qabul qilinadi. Biroq bunday o‘zgarishlar korxonaning ichki hujjat aylanishida to‘liq aks etishi, qo‘llanilayotgan usullar puxta asoslangan bo‘lishi va har bir holat tegishli buxgalteriya siyosatida aniq tarzda belgilab qo‘yilishi zarur.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va iqtisodiy jarayonlarning raqamlashtirilishi sharoitida an’anaviy ishlab chiqarish tarmoqlarining modernizatsiyasi yangi bozor segmentlarini shakllantirish bilan bir qatorda, tahlil, prognozlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash uchun mustahkam asos yaratmoqda. Shu bilan birga, jismoniy va yuridik shaxslar faoliyati ustidan soliq nazoratini samarali tashkil etish mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bevosita bog‘liqdir.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli soliq tizimini muvaffaqiyatli joriy qilish uchun kuchli qonunchilik bazasi, zamonaviy infratuzilma va malakali kadrlar tayyorgarligi zarur. Masalan, Estoniya, Singapur, AQSh va Xitoyda bu borada erishilgan yutuqlar va orttirilgan tajribalar O‘zbekistonda ham foydalanilishi mumkin bo‘lgan samarali yechimlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Maqolaning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish jarayonining huquqiy va amaliy asoslarini, iqtisodiy samaradorligini va xalqaro tajribalar bilan taqqoslab, muammolar va istiqbollarni aniqlashdir. Tadqiqot yakunida soliq tizimini takomillashtirish bo‘yicha xulosa va amaliy takliflar ilgari suriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish jarayoni nafaqat ichki islohotlarni tahlil qilish, balki xalqaro tajribani o‘rganish imkonini ham yaratadi. Quyida keltirilgan adabiyotlar soliqqa tortish va raqamli transformatsiya sohasidagi muhim manbalar bo‘lib, ular soliq tizimini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganishga yordam berdi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni.

Martinez-Vazquez va Almning (2003) “Public Finance in Developing and Transitional Countries” asarida[2] rivojlanayotgan hamda o‘tish davridagi mamlakatlarda soliq tizimini boshqarish, soliqqa tortish strategiyalari va raqamli texnologiyalar yordamida soliqqa tortishni optimallashtirish masalalari keng yoritilgan. Mualliflar mavjud muammolarni tahlil qilib, ularni raqamlashtirish orqali bartaraf etish yo‘llarini taklif etadilar.

OECD (2017) tomonidan tayyorlangan “Technology Tools to Tackle Tax Evasion and Tax Fraud” hisobotida[3] zamonaviy texnologiyalar, xususan, katta ma’lumotlar (Big Data) va sun’iy intellekt yordamida soliqqa tortish samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Hisobotda turli mamlakatlar tajribasi asosida raqamli vositalar yordamida soliqdan bo‘yin tovlash va firibgarlikni kamaytirish usullari bayon etilgan bo‘lib, bu O‘zbekistondagi raqamli islohotlar uchun muhim taqqoslama manba hisoblanadi.

Tanzining (2000) “Digital Economy and Public Finance” asarida[4] raqamli iqtisodiyotning davlat moliyasi va soliqqa tortish jarayonlariga ta’siri o‘rganilgan. Muallif raqamli texnologiyalar hamda elektron tijoratning soliq tizimiga olib kelayotgan o‘zgarishlarini tahlil qilib, yangi sharoitlarga mos soliq yondashuvlarini taklif etadi.

Bird va Zoltning (2003) “Tax Policy in Developing Countries” asarida[5] rivojlanayotgan mamlakatlar uchun samarali soliq siyosatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Mualliflar soliq jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli platformalardan foydalanish orqali soliq yig‘imlarini oshirish hamda xatolarni kamaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatadilar.

McLure (1999) “Taxation of Electronic Commerce” nomli asarida[6] elektron tijoratning soliq tizimiga ta’siri, yangi soliq muammolari va ularni hal etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Muallif elektron savdo sharoitida soliqqa tortish tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini asoslab beradi.

Keen (2013) “The Future of Tax Administration” asari[7] soliqqa tortish ma’muriyatining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganadi. Unda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va raqamli texnologiyalar yordamida soliq boshqaruvini takomillashtirish hamda xalqaro tajribani qo‘llash yo‘llari tahlil qilinadi.

Vashist (2020) “Digital Taxation: Emerging Issues and Challenges” asarida[8] raqamli soliqqa tortish tizimining shakllanishi, elektron tijoratda soliqqa tortish mexanizmlari va yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Muallif davlatlarning raqamli texnologiyalar yordamida soliqqa oid islohotlar olib borish tajribasini ham ko‘rsatadi.

Birdning (2019) “The Impact of Digital Transformation on Taxation” asarida[9] raqamli transformatsiyaning soliqqa tortish jarayonlariga ta’siri yoritilgan. Unda raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi va davlat moliyasini boshqarishdagi roli tahlil etiladi.

[2] Martinez-Vazquez, J., & Alm, J. (tahr.). Public Finance in Developing and Transitional Countries: Essays in Honour of Richard M. Bird. – Cheltenham, UK: Edward Elgar Publishing, 2003. – 420 b.

[3] OECD. Technology Tools to Tackle Tax Evasion and Tax Fraud. – Paris: OECD Publishing, 2017.

[4] Tanzi, V. Digital Economy and Public Finance. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2000.

[5] Bird, R. M., & Zolt, E. M. Tax Policy in Developing Countries. – Washington, D.C.: The World Bank, 2003. – (Policy Research Working Paper No. 3429).

[6] McLure, C. E. Taxation of Electronic Commerce. – National Tax Journal, 1999, Vol. 52, No. 4, pp. 849–873.

[7] Keen, M. The Future of Tax Administration. – IMF Working Paper, 2013.

[8] Vashist, A. Digital Taxation: Emerging Issues and Challenges. – New Delhi: Bloomsbury Publishing, 2020.

[9] Bird, R. The Impact of Digital Transformation on Taxation. – Toronto: Rotman School of Management, 2019.

Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi[10] hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-iyundagi 359-son qarori[11] va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish jarayonini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu manbalar O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish orqali soliqqa tortish tizimini raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirish yo‘nalishlarini aniqlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Soliq tizimini raqamli texnologiyalar orqali takomillashtirish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etadi. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar jarayonida turli ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanish orqali mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash hamda samarali yechimlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Quyida mazkur mavzuni o‘rganishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan asosiy tadqiqot metodlari va ularning ustun jihatlari haqida batafsil ma’lumot keltirilgan.

Taqqoslash tahlili usuli. O‘zbekiston va Estoniya, Singapur, AQSh, Xitoy kabi ilg‘or davlatlarning soliq tizimini raqamlashtirish bo‘yicha strategiya va amaliy natijalari solishtirildi. Mazkur usul xalqaro tajriba bilan mahalliy sharoit o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash imkonini berdi.

Empirik tahlil va statistik ko‘rsatkichlar. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi va Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari asosida 2020–2025-yillar oralig‘ida soliq tushumlari dinamikasi, iqtisodiyotning qisqarishi va soliq ma’muriyatchiligidagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Jadvallar va diagrammalar yordamida raqamli ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Ekspert baholash. Soliq organlari xodimlari, iqtisodchilar va raqamli texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar bilan intervyu o‘tkazilib, raqamli soliq tizimini joriy etishda uchrayotgan muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha fikrlar olindi.

Prognoz tahlili. Empirik ma’lumotlar asosida soliq tushumlari va raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha bashorat qilindi. Bunda iqtisodiy o‘sish sur’ati, aholi real daromadlari va soliq yukining o‘zgarishlari inobatga olindi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslarini mustahkamlab, soliq tizimini raqamlashtirish bo‘yicha O‘zbekistonda erishilgan natijalar va rivojlanish istiqbollarini kompleks tarzda ko‘rib chiqish imkonini berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekiston soliq tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga qaratilgan islohotlar jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar natijasida davlat byudjeti tushumlarining barqarorligi ta’minlanmoqda, soliq to‘lovchilarga yaratilgan qulayliklar ortmoqda hamda soliqqa oid jarayonlarning samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda. Quyida ushbu yo‘nalishda erishilgan asosiy natijalar bayon etiladi.

Soliq tushumlarini oshirish. O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar soliqqa tortish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Elektron platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlar inson omilini kamaytirib, soliq to‘lovchilarga o‘z majburiyatlarini aniq va o‘z vaqtida

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni. Mavjud: https://lex.uz/ru/docs/-5030957

[11] Vazirlar Mahkamasining “Soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2020-yil 5-iyundagi 359-son qarori. Mavjud: https://lex.uz/uz/docs/-4844692

bajarish imkonini bermoqda. Masalan, “E-Soliq” va “Soliq-24” platformalari orqali tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslar soliqlarni real vaqt rejimida to‘lay olishmoqda. Bu esa soliq tushumlarining oshishiga va byudjet intizomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Soliq to‘lovchilar uchun qulayliklarni oshirish. Elektron xizmatlarning joriy etilishi soliq to‘lovchilar uchun sezilarli qulayliklar yaratdi. “E-Soliq” tizimi orqali soliqlarni masofadan turib to‘lash, elektron deklaratsiyalarni topshirish hamda barcha jarayonlarni onlayn boshqarish imkoniyati mavjud. Natijada vaqt va mablag‘ tejalmoqda, soliq jarayonlarining byurokratik bosqichlari qisqarib, tadbirkorlar faoliyati soddalashtirilmoqda.

Shaffoflikni oshirish va firibgarlikning oldini olish. Raqamli texnologiyalar soliqqa oid operatsiyalarni yanada shaffof qiladi. Elektron hisob-fakturalar (e-invoice), onlayn kassa tizimlari va blokcheyn texnologiyalari orqali barcha operatsiyalar real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Bu nafaqat soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi ishonchni kuchaytiradi, balki soliqdan bo‘yin tovlash va firibgarlik holatlarini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, blokcheyn asosidagi nazorat mexanizmlari sohada xolislik va aniqlikni ta’minlamoqda.

Davlat soliq organlari faoliyatining samaradorligini oshirish. Soliq tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi faoliyatini samaraliroq va natijadorroq qilish imkonini berdi. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari yordamida soliq to‘lovchilar haqidagi ma’lumotlar chuqur tahlil qilinib, soliqlarni prognoz qilish, xatoliklarni kamaytirish hamda ma’lumotlar bazasini optimallashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu esa O‘zbekiston soliq boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xalqaro tajribaga asoslangan yondashuv. O‘zbekiston soliq tizimini raqamlashtirishda ilg‘or xorijiy tajribadan faol foydalanmoqda. Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribalari asosida elektron tijoratdan soliq yig‘ish, elektron kassa tizimlari va blokcheyn texnologiyalariga asoslangan platformalar O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilmoqda. Bu xalqaro yondashuv soliq boshqaruvining raqamli transformatsiyasini tezlashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda 2018–2020-yillarda soliq islohotlari chuqurlashib, soliq stavkalari pasaytirildi, ayrim to‘lovlar bekor qilindi, elektron kassa tizimlari joriy etildi. Bu o‘zgarishlar soliq yig‘ish tizimining an’anaviy modeldan raqamli tizimga o‘tishini boshlab berdi. Biroq soliq siyosatida ilgari shakllangan tamoyillar – masalan, ijtimoiy tenglik, fiskal barqarorlik va davlat ehtiyojlarini moliyalashtirish zarurati – hanuz asosiy yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yil davomida soliq tushumlari sezilarli darajada o‘sdi. Quyidagi 1-jadval va 1-rasmda 2016-yildan 2025-yilgacha (10 yillik) davrda davlat byudjeti tarkibiga soliq organlari tomonidan undirilgan tushumlar hajmining o‘zgarishi keltirilgan.

1-jadval


2016–2025-yillarda O‘zbekiston davlat byudjeti soliq tushumlari[12]

T/r	Yil	Soliq tushumlari (trln. so‘m)	O‘sish sur’ati (oldingi yilga nisbatan, %)
1.	2016	31,4	–
2.	2017	≈ 36	≈ 15

[12] Ushbu jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

T/r	Yil	Soliq tushumlari (trln. so‘m)	O‘sish sur’ati (oldingi yilga nisbatan, %)
3.	2018	≈ 53,7	≈ 49
4.	2019	83,2	55
5.	2020	103,6	24
6.	2021	127,9	23
7.	2022	148,5	16
8.	2023	165,9	12
9.	2024	199,1	20
10.	2025	247,8	24

Soliq tushumlari dinamikasining yana bir tasviri 1-rasmda taqdim etilgan.



1-rasm. *Soliq organlarining 2025-yilda byudjetga tushumlari, trln so‘m*[13]

Yuqoridagi ma’lumotlarga ko‘ra, 2016-yildan 2023-yilgacha O‘zbekiston soliq tushumlari qariyb 5 baravar oshdi – 31,4 trln so‘mdan 165,9 trln so‘mgacha. Hatto 2014-yil bilan qiyoslaganda (ya’ni to‘liq so‘nggi o‘n yillikda) ham o‘sish ko‘rsatkichi bir necha baravarni tashkil etadi.

2025-yil yakunida esa davlat byudjetiga soliq tushumlari 247,8 trln so‘mni tashkil etib, avvalgi yilga nisbatan 24 foizga oshdi. Bu o‘sishlar iqtisodiyotning kengayishi, inflyatsiya omillari va eng muhimi, soliq ma’muriyatchiligini yaxshilash hamda soliq bazasini kengaytirish hisobiga ta’minlanmoqda.

[13] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi rasmiy saytidan olindi (https://soliq.uz).



2-rasm. *Soliq tushumlari dinamikasi, 2021–2024-yillar*[14]

O‘zbekistonda joriy etilgan raqamli platformalar “E-Soliq” va “Soliq-24” tizimlari soliq yig‘ish jarayoni samaradorligini oshirdi. Ushbu platformalar orqali soliq to‘lovchilar soliqlarni real vaqt rejimida to‘lash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijada davlatning soliq tushumlari oshib, soliq to‘lovchilar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratildi.

Elektron deklaratsiya va hisobvaraq-faktura tizimlarining joriy etilishi bilan tadbirkorlarning vaqt va mablag‘lari tejaldi, bu esa iqtisodiy faoliyat uchun muhim rag‘batlantiruvchi omilga aylandi.

Quyidagi 2-jadvalda elektron xizmatlardan foydalanish ko‘rsatkichlari sezilarli ravishda oshganligini kuzatish mumkin, bu esa soliq tizimida raqamli texnologiyalarning samaradorligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Raqamli texnologiyalar joriy qilingandan keyingi soliq to‘lovchilarning elektron xizmatlardan foydalanish darajasi (foizda)[15]

T/r	Yil	Elektron xizmatlardan foydalanish darajasi (%)
1.	2020	45
2.	2021	62
3.	2022	78
4.	2023	91
5.	2024	96
6.	2025	98

Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarda soliq tizimini raqamlashtirish sohasida muvaffaqiyatli tajribalar mavjud bo‘lib, O‘zbekiston bu davlatlarning tajribasidan

[14] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi rasmiy saytidan olindi (https://soliq.uz).

[15] O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi (2023). O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi va raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar hisoboti.

foydalanmoqda. Xususan, Estoniyada elektron soliq tizimi orqali aholining soliq to‘lashdagi ishtiroki sezilarli darajada soddalashtirilgan. Janubiy Koreyada esa sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) asosida soliq hisob-kitoblarining avtomatlashtirilgan tizimi yaratilib, soliq xatoliklari minimallashtirilgan. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali mahalliy soliq tizimi ham sezilarli darajada rivojlantirildi.

Estoniya. Soliq tizimida blokcheyn texnologiyasi va “e-Residency” dasturi orqali nafaqat mahalliy, balki chet el fuqarolariga ham raqamli xizmatlar ko‘rsatadi. Soliq deklaratsiyalarining 95 foizdan ortig‘i onlayn topshiriladi.

Singapur. “Smart Nation” strategiyasi doirasida sun’iy intellekt va Big Data yordamida soliq to‘lovchilarni segmentatsiya qilish va xatarlarni prognozlash jarayonlari avtomatlashtirilgan.

AQSh. Ichki daromad xizmati (IRS) katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatiga ega. Firibgarlikni erta aniqlash tizimi sun’iy intellekt algoritmlariga asoslangan.

Xitoy. Elektron hisob-fakturalar joriy etilishi va onlayn to‘lov tizimlari bilan integratsiya qilish orqali soliq ma’muriyatchiligini tezkor boshqarish imkonini yaratgan. Yirik internet-korporatsiyalar bilan hamkorlik soliq to‘lovlarini monitoring qilishda qo‘l kelmoqda.

Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, soliq tizimini muvaffaqiyatli raqamlashtirish uchun qulay qonunchilik muhiti, raqamli infratuzilma, malakali kadrlar va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida raqamli savodxonlik bo‘lishi muhim.

O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Quyida asosiy tashabbuslar va ularning afzalliklari keltiriladi.

3-jadval

Raqamli soliq tizimlarining asosiy afzalliklari[16]

Afzallik	Tavsif
Foydalanish qulayligi	Onlayn platformalar orqali soliq jarayonlarini masofadan boshqarish imkoni
Xarajatlarni kamaytirish	Qog‘oz hujjatlar va ma’muriy xarajatlarni qisqartirish
Jarayonlarning tezlashishi	Avtomatlashtirish orqali deklaratsiya va to‘lovlarni tez qayta ishlash
Soliqqa bo‘ysunishning oshishi	Soddalashtirilgan jarayonlar tufayli soliqqa rioya qilish darajasining oshishi
Shaffoflik va ma’lumot tahlili	Ma’lumotlarni tahlil qilish orqali soliqqa bo‘ysunmaslikni aniqlash

My.soliq.uz portali O‘zbekistonning soliq xizmatlari uchun maxsus yaratilgan elektron platformadir. Ushbu portalning asosiy maqsadi soliq to‘lovchilar va biznes uchun davlat elektron xizmatlarini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratishdan iborat. Portal orqali quyidagi xizmatlar taqdim etiladi: soliq deklaratsiyalarini topshirish; soliq

[16] Ushbu jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

to‘lovlarini amalga oshirish; ro‘yxatdan o‘tish va soliq hisob-kitoblari; soliqqa oid ma’lumotlarni olish.

Portal xizmatlari interaktiv va axborot xizmatlari sifatida tasniflanadi, bu esa foydalanuvchilarga xizmatlarni tez va oson topish imkonini beradi. Ushbu tizim soliq to‘lovchilarning vaqtini tejaydi va soliq organlari bilan bevosita aloqada bo‘lish zaruratini kamaytiradi.

My.gov.uz portali O‘zbekistonning yagona interaktiv davlat xizmatlari platformasi sifatida soliq xizmatlarini ham qamrab oladi. Ushbu portal orqali soliq to‘lovchilar quyidagi xizmatlardan foydalanishlari mumkin: naqd kassa jihozlarini ro‘yxatdan o‘tkazish; soliq imtiyozlari bo‘yicha ma’lumot olish; soliq to‘lovchilar haqida ma’lumot olish; soliq organlariga murojaatlar holatini kuzatish.

Jahon bankining (2022) “Davlat sektori raqamli transformatsiya tendensiyalari” hisobotida O‘zbekiston raqamli transformatsiya bo‘yicha yetakchi davlatlar qatoriga kiritilgan. Hisobotda my.gov.uz va my.soliq.uz portallari orqali soliq xizmatlarining elektron shaklda taqdim etilishi alohida ta’kidlangan.

4-jadval

O‘zbekistondagi raqamli soliq xizmatlari[17]

Platforma	Xizmatlar	Afzalliklar
My.soliq.uz	Deklaratsiya topshirish, to‘lovlar, ro‘yxatdan o‘tish, ma’lumot olish	Qulaylik, xarajatlarni kamaytirish, tezkorlik
My.gov.uz	Soliq imtiyozlari, kassa ro‘yxati, murojaatlar holati	Yagona platforma, foydalanish qulayligi
Tax.uz	Chet el kompaniyalari uchun QQS ro‘yxati, soliq hisobotlari	Xalqaro soliqqa bo‘ysunishni soddalashtirish

Raqamlashtirish jarayoni soliq ma’muriyatchiligida shaffoflikni oshirdi. Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari hisobini yuritishga oid yirik hajmdagi axborotlarni elektron tarzda olish, tahlil qilish va soliq solish bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

5-jadval

Raqamlashtirish natijasida erishilgan yutuqlar[18]

T/r	Ko‘rsatkich	Natija
1.	Soliq tushumlarining o‘sishi	24% (2025-yilda)
2.	Tuman va shaharlar byudjeti tushumlari	24% o‘sish
3.	Soliq ma’muriyatchiligida shaffoflik	Oshdi
4.	Soliq imtiyozlarining samaradorligi	Tahlil qilish imkoniyati oshdi

[17] Ushbu jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

[18] Ushbu jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekiston soliq tizimini raqamlashtirish islohotlari qisqa vaqt ichida ijobiy natijalar berdi. Soliq tushumlarining oshishi, shaffoflikning ta’minlanishi va soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash imkoniyatlari raqamlashtirishning muhim afzalliklaridir. Kelgusida ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

XULOSA

O‘zbekiston soliqqa tortish tizimini raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirish yo‘lida so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Ushbu jarayon davlat byudjeti tushumlarini oshirish, soliqqa oid jarayonlarni shaffoflashtirish hamda soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarni yanada qulay qilishga xizmat qilmoqda. “E-Soliq” va “Soliq-24” kabi elektron platformalarning joriy etilishi soliq to‘lovchilar bilan davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlab, soliqlarni to‘lash jarayonini ancha soddalashtirmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba va ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish O‘zbekiston soliq tizimini raqamlashtirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bu yo‘nalishda Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribalari o‘rganilib, milliy sharoitga moslashtirilmoqda. Kelgusida raqamli infratuzilmani yanada takomillashtirish, foydalanuvchilar uchun o‘quv dasturlarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni chuqur integratsiya qilish orqali soliqqa tortish tizimining barqarorligi va samaradorligini yanada oshirish mumkin. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish O‘zbekistonda zamonaviy, ochiq va samarali soliq tizimini shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bird, R. (2019) *The impact of digital transformation on taxation*. Toronto: Rotman School of Management.
2. Bird, R. M. and Zolt, E. M. (2003) *Tax policy in developing countries*. Policy Research Working Paper No. 3429. Washington, D.C.: World Bank.
3. Jahon banki (2022) *Davlat sektori raqamli transformatsiya tendensiyalari hisoboti*. Vashington: Jahon banki.
4. Keen, M. (2013) *The future of tax administration*. IMF Working Paper. Washington, D.C.: International Monetary Fund.
5. Martinez-Vazquez, J. and Alm, J. (tahr.) (2003) *Public finance in developing and transitional countries: Essays in honour of Richard M. Bird*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 420 b.
6. McLure, C. E. (1999) ‘Taxation of electronic commerce’, *National Tax Journal*, 52(4), pp. 849–873.
7. OECD (2017) *Technology tools to tackle tax evasion and tax fraud*. Paris: OECD Publishing. Mavjud: https://www.oecd.org/tax/crime/technology-tools-to-tackle-tax-evasion-and-tax-fraud.htm
8. O‘zbekiston Respublikasi (2023) *Soliq kodeksi*. Toshkent: Adolat nashriyoti.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020a) *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*: 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni. Mavjud: https://lex.uz/ru/docs/-5030957
10. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi (2023) *O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi va raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar hisoboti*. Toshkent.
11. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi (2025) *Rasmiy ma’lumotlar*. Mavjud: https://soliq.uz

12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2025) *Statistik ma’lumotlar*. Mavjud: https://stat.uz
13. Tanzi, V. (2000) *Digital economy and public finance*. Washington, D.C.: International Monetary Fund.
14. Vahobov, A. and Jo‘rayev, A. (2009) *Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik*. Toshkent: Sharq nashriyoti, 400 b.
15. Vashist, A. (2020) *Digital taxation: Emerging issues and challenges*. New Delhi: Bloomsbury Publishing.
16. Vazirlar Mahkamasi (2020) *Soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*: 2020-yil 5-iyundagi 359-son qarori. Mavjud: https://lex.uz/uz/docs/-4844692